

**MUHANDISLIK GRAFIKASI FANI O'QITUVCHILARINING
MEDIAKOMPETENTLIGINI RIVOSHLANTIRISHDA METODLARNING
TUTGAN O'RNI**

*Abdusalomova Xadicha G'ayratjon qizi
Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pe-
dagogika Universiteti muhandislik va dizayn
nazariyasi mutaxassisligi 1-kurs magistanti*

Annotatsiya: Bugungi rivojlanayotgan zamonda o'qituvchilarning mediakompetentligini yanada oshirish, jumladan, ilgari foydalanilgan metodlarni yanada takomillashtirish hozirdagi eng muhim masalalardan biri ekanligi haqida ushbu maqolada fikr yuritiladi.


Kalit so'zlar: Mediakompetentlik, metod, oliy ta'lim, yosh kadr, axborot, metodika, ko'rsatkich, didaktika, strategiya, pedagogik, ilmiy yangilik, modellashtirish, modul, kreativlik, yondashuv.

Mediakompetentlikni pedagogik fenomenni o'rganish sifatida tashkil qilish, ya'ni mohiyatini, xossalarini, belgilarini, mazmunini aniqlash, zamonaviy oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy tayyorgarlik jarayonida mediakompetentlikni rivojlantirish imkonini beruvchi pedagogik modelni yaratish zarur.

Ma'lumki, hodisaning genezisini tadqiq qilmasdan turib, uning mohiyatini tushunib bo'lmaydi. Shundan kelib chiqib, bo'lajak o'qituvchilarda mediakompetentlikni rivojlantirish muammosining bazaviy jihatlarini ishlab chiqish va uni hal qilishga oid takliflarni kiritishdan oldin masalaning yuzaga kelish tarixini o'rganish muhim a.

Metod so'zi grekcha tadqiqot, maqsadga erishish yo'li, usuli deganidir. Bu so'zning etimologiyasi (kelib chiqishi) uning ilmiy kategoriya sifatidagi talqinida ham aks etgan. "Metod – eng umumiy ma'noda – maqsadga erishish usuli, ma'lum tarzda tartibga solingan faoliyat".

Ta'lim metodlari deyilganda, o'rganilayotgan materialni egallashga qaratilgan turli didaktik vazifalarni hal etish bo'yicha o'qituvchining o'rgatuvchi ishi va o'quvchilar o'quv-bilish faoliyatini tashkil etish usullari tushuniladi.



Metodning kelib chiqish tarixi kishilarning amaliy faoliyatiga borib taqaladi. Biror ishni bajarish metodini egallagan kishi shu ishni boshqalarga nisbatan oson, tez va soz bajara oladi. Metodni egallamagan inson esa bu ishni bajarish uchun ko'p vaqt va kuch sarflaydi. Metod o'z mazmuni jihatidan amaliy yoki nazariy shaklda bo'lishi mumkin. Insonning amaliy faoliyatiga oid Metodlar ham voqelikka xos bo'lgan [qonuniyatlarni anglab yetish](#), bilib olishga borib taqaladi. Metodlar haqidagi ta'limot fanda metodologiya deb ataladi.

Voqelik haqidagi fanlar rivojlanishi bilan fanlarda qo'llaniladigan yo'l-yo'riqlar, Metodlar ham takomillashib borgan. Fanning amaliy (empirik) va nazariy metodlari vujudga keldi.

Fan metodlarining asosiy mazmunini amaliyotda sinalgan ilmiy nazariyalar tashkil etadi. Har qanday ilmiy nazariya mohiyati jihatidan metod funksiyasiga egadir. Metod, o'z navbatida, yangi ilmiy nazariyalar va qonuniyatlarning ochilishiga vosita bo'ladi. Shu nuqtai nazardan metod bilan ilmiy nazariya funk-siyasiga ko'ra, bir-biridan farq qiluvchi ilmiy amal hisoblanadi.

An'anaviy (manbasiga ko'ra) ta'lim metodlari tasnifi

Og'zaki	Ko'rgazmali	Amaliy	Kitob bilan ishlash	Videometod
Hikoya Suhbat Tushuntirish Ma'ruza Munozara	Illyustratsiya Demonstratsiya	Mashq Amaliy Laboratoriya Didaktik o'yin	O'qish O'rganish Reja tuzish Konspekt qilish	Ko'rish, O'rganish, Nazorat qilish

Shularni hisobga olgan holda, bugungi kunda dolzarb masalalardan biri bo'lib kelayotgan masala: bo'lajak o'qituvchilarning mediakompetentligini oshirishga jiddiy e'tibor qaratar ekanmiz, yuqorida nazarda tutilgan metodlarni e'tibordan chetda qoldira olmaymiz. Bo'lajak o'qituvchi uchun kuzatish, taqqoslash hamda tarixiylik metodlari juda ham muhim sanaladi.

Oxirgi yillarda jahonda motivasiya nazariyasini ishlab chiqish va bo'lajak o'qituvchilarning professionalizmini baholash hamda uning faoliyatini rag'batlantirish bilan salohiyatini rivojlantirish bilan bog'liq tadqiqotlar olib borilmoqda. Biroq bu davrda hech narsa ko'r-ko'rona ko'chirib olinmayapti, har bir manba diqqat bilan o'rganilib, medita'limning amaldagi shart-sharoitlaridan kelib chiqib, mazmuni ijodiy o'rganilmoqda. Global axborot maydonining kengaytirilishi, shu jumladan, zamonaviy mediavositalar yordamida, mutaxassislarda mediakompetentlikning, mustaqil ta'limning va mustaqil rivojlanishning darajasini oshirish imkoniyati tug'ildi.

Biroq oliy ta'lim muassasalari tomonidan mediata'limsiz mutaxassislarni sifatli tayyorlash mumkin emas. Ushbu fakt oxirgi yillarda amalga oshirilgan ko'p sonli xilma-xil tadqiqotlarning bajarilishiga sharoit yaratdi, ularda bo'lajak o'qituvchilardan boshlab to harbiylar va muhandislargacha bo'lajak mutaxassislarda mediakompetentlikni rivojlantirish muammolari o'rganildi. Bu davrda jamiyatning barcha darajadagi mutaxassislarning ma'lumotiga va kompetentligiga ijtimoiy buyurtmasi sababli bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarining mediakompetentligi ham tadqiqot predmetiga aylandi.

Xulosa qilib, bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarida mediakompetentlikni rivojlantirishga ilmiy-tadqiqotchilik nuqtai nazaridan qaratilgan e'tibordagi

o'zgarishlarni hisobga olib o'rganilgan tadqiqotlarimiz o'z rivojlanishida uchta bazaviy bosqichga ega ekanligini aytib o'tamiz: mediakompetentlik muammosining har tomonlama o'rganilishi, kasbiy kompetentlikni rivojlantirish masalalarini o'rganishni dolzarblik darajasining ko'tarilishi. Bularning barchasi uchun, avvalo, metodlardan to'g'ri foydalanish va ularni amaliyotga to'g'ri tatbiq etish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Babanskiy Y.K. Metodi obucheniya v sovremennoy obsheobrazovatelnoy shkole. – Moskva: Prosvesheniye, 1985.
2. Lerner I.Y. Didakticheskiye osnovi metodov obucheniya. – Moskva: Pedagogika, 1981.
3. Rijkov V.N. Didaktika. – Moskva: Yuniti-dana, 2004.
4. Sayidahmedov N.S. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Moliya, 2003.
5. Pedagogika nazariyasi va tarixi. 1-qism. Pedagogika nazariyasi / M.X.Toxtaxodjaye va boshqalar. Prof. M.X.Toxtaxodjaye va boshqalarining umumiy tahriri ostida. – Toshkent: "Iqtisod-moliya", 1996.